

**Valieva Alokhan**  
student of Gulistan State  
Pedagogical Institute  
Scientific supervisor:  
Munisa Ulugbekova  
teacher of Gulistan State  
Pedagogical Institute.

**Valieva A'loxon**  
Guliston davlat pedagogika  
institutini talabasi  
Ilmiy rahbar: Munisa  
Ulugbekova Rahmatboy qizi  
-Guliston davlat pedagogika  
institutini o'qituvchisi.

**Валиевой Алохан** –  
студентка Гулистанского  
государственного  
педагогического  
института.  
Научный руководитель:  
Муниса Улугбекова, дочь  
Рахматбоя, преподаватель  
Гулистанского  
государственного  
педагогического  
института.

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА ХАРАКАТЛИ О'ЙНЛАР ВА УЛАРНИНГ АНАМИЯТИ

**ANNOTATSIYA:** Bu maqolada maktabgacha ta'limda xarakatli o'yinlarning ahamiyati to'g'risida so'z boradi.

**KALIT SO'ZLAR:** masofaviy ta'lim, bola, o'yin, tarbiya, qoida.

## ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ИГРЫ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье говорится о значении игр-действий в дошкольном образовании.

**.. КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА** дистанционное образование, ребенок, игра, образование, правило.

## ACTIVITY GAMES AND THEIR SIGNIFICANCE IN PRESCHOOL EDUCATION

**ABSTRACT:** This article talks about the importance of action games in preschool education.

**KEY WORDS:** distance education, child, game, education, rule..

Maktabgacha ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni yukladi, chunki bolalar maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab bilimlari, jismonan baquvvat va ma'nan etuk, barkamol qilib tarbiyalash muhim vazifalardan biridir.

Harakatli o'yinlarning kelib chiqishi qadimdan xalq pedagogikasiga borib taqaladi. Ilk maktabgacha yoshli bolalar oilada bolaning dastlabki harakati bilan bog'liq ovunmachoqlar, ermak o'yinlar yordamida tarbiyalanganlar. Undan kattaroq yoshdagi bolalar hayotida rang-barang harakat mazmuniga ega bo'lgan xalq o'yinlari katta o'rin olgan. Bularning hammasi hozirga qadar badiiy jozibadorligini, tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelmoqda va qimmatli o'yin folklorini tashkil etadi.

Bolaning har tomonlama rivojlanishida o'yin asosiy faoliyat turi bo'lib hisoblanadi. O'yin bu bola faoliyatining yorqin turi, o'yin jarayonida uning irodasi, hissiyoti, ehtiyoji, qiziqishlari, ta'sirchanligi, ya'ni butun shaxsiyati shakllanadi.

Qadimdan o'zbek halqi bolalarga turli halq o'yinlarini o'ynatib, o'rgatib kelganlar va o'yinlar orqali uddaburonlik, chaqqonlik, topqirlik, mehrshafqatlilik kabi fazilatlarini tarkib toptirib, mehnatga o'rgatib borganlar.

O'yin doimo hayotni aks ettiradi, shuning uchun uning mazmuni ijtimoiy

voqelikda o'zgarib turadi. O'yin maqsadga qaratilgan o'ylangan ijodga yo'naltirilgan jarayondir. SHunga ko'ra ham ko'p o'ynagan bolalar keyingi faoliyatlarga o'qishga va mehnatga tayyorlanib turadilar.

Harakatli o'yinlar mazmunida bola dunyoqarashini kengaytiruvchi va tasavvurini aniqlashtiruvchi ko'plab bilish materiallari mavjud. Biroq bola tashqi dunyoni to'g'ri idrok qilishi uchun (o'yinning barcha shartlariga rioya qilgan holda) obrazning to'g'ri xarakteristikasi va haqqoniy o'yin vaziyati zarur. Buning uchun, o'yinni tushuntirishda emotsional tarzda bayon etiladi.

Xalq o'yinlari buning ajoyib namunasi hisoblanadi. Ulardagi o'yin vaziyati bolani qiziqtiradi va tarbiyalaydi, Syujetga ega bo'lmagan va faqat muayyan o'yin topshiriq shu tariqadan tuzilgan o'yinlarda ham bolaning sensor qobiliyatini, tafakkurini, mo'ljal olishini rivojlantirishga yordam beruvchi ko'plab bilish materiallari mavjud («Kim o'zar», «To'p otish» va hokazo).

Qoidalar katta tarbiyaviy ahamiyatga molik. Ular o'yinning borishini belgilaydi, bolalar harakat faolnyatini, ularning hatti-harakati, o'zaro munos

Qoidalarni og'ishmay bajarishni talab qilish maqsadga erishishdagi egoistik emotsiyalar va kayfiyatni engishga yordam beradi. «Qoida bola hatti-harakatini

boshqaradigan va yo'naltiradigan birinchi talab hisoblanadi. O'yinlarda teran hissiyot, o'rtoqlik va mehr-muhabbatning dastlabki nishonalari paydo bo'ladi». Dastlab bolalar o'yin vazifalarini tezroq bajarish payida bo'lib qoidalarni unutib qo'yadilar, bundan tashqari yutuqqa va unga eng oson yo'l bilan erishishga intilish ham qoidani buzishga sabab bo'ladi.

Bu o'z navbatida o'yinchilarda norozilik uyg'otadi, ziddiyat tug'diradi va bolalar o'rtasidagi munosabatni yomonlashtiradi. Bolalarni qoidalarning ijtimoiy ahamiyatini anglashga, chidam bilan tayyorlaydigan tarbiyachi rahbarligida ular halollik, adolatlilik, do'stlik, botirlik, o'zini tuta bilish, qat'iyatlik, iroda kabi yaxshi sifatarni shakllantirishning samarali vositasiga aylanadi.

«Bola tomonidan asta-sekin o'zlashtiriladigan bunday hayotiy muhim axloqiy sifatlar bola shaxsining ichki ma'naviy mulkiga aylanadi». Bularning hammasi qoidali, harakatli o'yinlarni bolalarni axloqiy tarbiyalashning ta'sirchan vositalaridan biri sifatida belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'yinda fazoni idrok etish o'zining asosiy formalarida namoyon bo'ladi: bevosita; hissiy bilish - sensor (hissiy-obrazli) va bilvosita ( mantiqiy tafakkur, tushuncha). Masalan, bola tomonidan harakat yo'nalishini mustaqil tanlash va

harakatni o'yin qoidasida qat'iy belgilangan yo'nalishda bajarish bir tomondan o'yin vaziyatini (bevosita idrok qilinadigan) va ko'rish-motor reaksiyasini (o'yin harakatlarini) darhol baholashni, ikkinchi tomondan o'z harakatlarini fazo o'yin muhitida anglash va tasavvur qilish hamda o'sha ko'rish-motor reaksiyasini namoyon etishni talab qiladi. Harakatli o'yinda bu ikki komponent o'zaro xarakterda bo'ladi, o'yin qoidalari bola harakati uchun fazoda oldindan mo'ljal olishning zarur imkoniyatini yaratadi; bolalarning tezkor reaksiyasi hamda fazoda mo'yajal olishini talab qiladi («Ikki ayoz», «Sehrli tayoqcha», «Jasur bolalar», «Maymunlar va ovchilar» va hokazo o'yinlar). Bunday reaksiya boladagi o'z faoliyati va harakatlarini muayyan muhitga moslash qobiliyatining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Bunda bolaga tarbiyachi yordam berishi lozim. Bunda tarbiyachi bolani asta-sekin o'yin vaziyati va qo'yilgan vazifaga erishish zaruratini hisobga olgan holda birmuncha muvaffaqiyatli harakat usulini topishga o'rgatadi.

Atrof-muhitda mo'ljal olishga o'yin vazifasini bajarish yo'lida atayin yaratilgan to'siqlar ham yordam beradi. Bu bolalarda ma'qul harakat usulini masofani etarlicha rivojlangan ko'z bilan baholash va harakatlarni bajarish vaqtini hisobga olishga tayangan holda mustaqil tanlash qobiliyatini hosil qiladi.

Harakatli o'yinlarning hozirgi davrdagi ahamiyati nihoyatda kattaligini bilishimiz kerak. SHunidek, respublika miqyosida tashkil etilayotgan turli sport tadbirlarida milliy harakatli o'yinlarning tarbiyaviy jihatlardan o'rinli foydalanish bilan birga oila va maktabgacha tizimda milliy harakatli o'yinlarga e'tiborni kuchaytirish lozim buladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalashida harakatli o'yinlarni tashkil qilish kerak. Jumladan, harakatli o'yinlarga rahbarlik qilish puxta egallash o'yinlarni muvaffaqiyatli o'tkazish to'g'risida reja asosida tashkil etish kerak. O'yinning mazmuni va qoidalarini qisqa, aniq va ifodali tushuntirish, oldindan suhbatlar o'tkazish natijasida tarbiyachi bolalar ongida o'yin to'g'risida ma'lum tasavvur paydo bo'lishiga erishadi. Fikrimizcha, o'yin tavsifini, qoidalarini tushuntirish jarayonida uning ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy, tarbiyaviy jihatlari alohida nazarda tutilishi kerak. Asosiy

Harakatli o'yinlarni tashkil qilish tarbiyachilar tomonidan nazorat qiladi. Har bir tarbiyachi o'yinni tashkil qilishda uchiragan muammoni hal qilishni yoritishish yullarin topadi, o'z nuqtai nazarini bayon qiladi.

YUqorida qayd etganimiz va boshqa bir qator mavjud manbalarning ahamiyati beqiyosdir. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida o'rinli foydalanish jismoniy

tarbiya yo'riqchilarining asosiy burchi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lim tarbiya tizimida jismoniy tarbiya bo'yicha bolalarni jismoniy rivojlantirish uchun harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'rgatishni takomillashtirish talab etiladi. Bizningcha, harakatli o'yinlarni o'rgatishdagi asosiy maqsad barkamol avlodning jismonan va ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham kamolotini ta'minlashga xizmat qilishi lozim. CHunki ma'naviy sog'lom farzandlarga yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi uchun jonkuyar insonlar bo'lib etishadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. T.:-2016y. 29-dekabr.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017y.
3. Jabborova, D. (2016). K interpretatsii stixotvoreniya CHulpana “Guzal”. *Inostrannaya filologiya: yazyk, literatura, obrazovanie*, (1 (58)), 104-108.
4. Rakhimov, B. K., Jabborova, D. D., Khudayberdieva, D. B., Omonboev, B. I., Kurbanov, E. E., & Khayitov, S. T. (2023). Psychological Fundamentals of Formation

of Creative Thinking of Future Teachers. *Journal of Law and Sustainable Development*, 11(12), e2704-e2704.

5. Jabborova, D. (2023). Psychological and pedagogical model of development of students' creative abilities in russian language and literature classes. *Social science and innovation*, 1(2), 84-89.

6. Jabbarova, D. D. (2015). Organizatsiya tvorcheskoy deyatel'nosti uchashixsya na osnove innovatsionnykh texnologiy. *Molodoy uchenyy*, (10), 1157-1160.